



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES



# ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND  
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object identifier

eoconf.com - from 2024



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION:** a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 1

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





## To‘qimachilik sanoatini xomashyo bilan ta‘minlashda kanopning ahamiyati

Muhammadjonov Javohir Saydullo o‘g‘li

Farg‘ona Davlat texnika universiteti talabasi

[Javohirmuhammadjonovyt@gmail.com](mailto:Javohirmuhammadjonovyt@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushba maqolada kanop tolasi an‘anaviy paxta va ipak tolalariga muqobil sifatida ilmiy tahlil qilingan. Unda kanopning tarixiy qo‘llanilishi, kimyoviy va fizik xususiyatlari, jahon tajribasi, iqtisodiy samaradorligi, ekologik va gigienik afzalliklari hamda O‘zbekistonda istiqbollari keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kanop tolasi, muqobil tola, ekologiya, to‘qimachilik, almashib ekish.

**Аннотация:** В данной статье волокно конопли научно проанализировано как альтернативное сырьё традиционным хлопковым и шёлковым волокнам. В работе подробно рассмотрены исторический опыт применения конопляного волокна, его химический состав и физико-механические свойства. Также проанализирован мировой опыт использования конопляного волокна, его экономическая эффективность, экологическая устойчивость и гигиенические преимущества. Отдельное внимание уделено перспективам выращивания и промышленной переработки конопляного волокна в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** конопляное волокно, альтернативное волокно, экология, текстиль, севооборот.

**Abstract:** In this article, hemp fiber is scientifically analyzed as an alternative raw material to traditional cotton and silk fibers. The study provides a detailed examination of the historical experience of using hemp fiber, its chemical composition, and its physical and mechanical properties. In addition, global experience in the utilization of hemp fiber is analyzed, including its economic efficiency, environmental sustainability, and hygienic advantages. Particular attention is paid to the prospects for the cultivation and industrial processing of hemp fiber under the conditions of Uzbekistan.

**Keywords:** hemp fiber, alternative fiber, ecology, textiles, crop rotation.

**Kirish.** Insoniyat tarixida tabiiy tolalar turmush tarzini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan. Paxta va ipak ming yillar davomida kiyim-kechak va maishiy buyumlarning asosiy xomashyosini tashkil etgan. Ammo XXI asrda global ekologik muammolar, suv resurslarining kamayishi va barqaror rivojlanish talablari ushbu tolalarga muqobil manbalarni izlashni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, kanop tolasi qayta tiklanuvchi, ekologik toza va iqtisodiy samarali mahsulot sifatida alohida e‘tiborga loyiqdir. O‘zbekistonning katta qismida foydalanilmayotgan va degradatsiyaga uchragan yerlar mavjud. Sho‘rlanish, suv resurslarining kamayishi va agrotexnik xatolar tufayli yaroqsiz bo‘lib qolgan bunday maydonlar ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Shu sharoitda kanop ekini nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorligi bilan ham muhim ahamiyat





kasb etishi mumkin. Bundan tashqari, kanopdan keyin tuproq tiklanib, boshqa foydali ekinlarni yetishtirish imkoniyati yaratiladi.

**Asosiy qism.** Kanop insoniyat tomonidan qadimdan yetishtirilgan o'simliklardan biridir. Xitoyda bundan 5000 yil avval kanopdan mato va qog'oz tayyorlangan. O'rta asrlarda esa u yelkanlar, arqonlar va qoplar ishlab chiqarishda asosiy xomashyo bo'lgan. Hatto dengiz sivilizatsiyasining rivojida kanop tolasi muhim rol o'ynagan. Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida kanop ekilgan bo'lib, texnik tola sifatida qo'llanilgan.

Kanop tolasi tabiiy tarkibiy qismlari bilan ajralib turadi:

- Sellyuloza: 60–70 %
- Lignin: 8–10 %
- Pektin va mum moddalar: 3–5 %

Fizik jihatdan esa:

- Uzilish kuchi 400–800 MPa bo'lib, paxtadan ancha yuqori.
- Gigroskopikligi yuqori, havo o'tkazuvchan.
- Antibakterial va mog'orga chidamli.

Kanop tolasi ishlab chiqarish jarayoni atrof-muhit uchun eng qulay jarayonlardan biridir: Suv sarfi paxtaga qaraganda bir necha baravar kam. Pestitsid va kimyoviy ishlov talab qilmaydi. Biologik parchalanadigan xususiyatga ega. 1 gektar kanop ekini o'rmondan ko'ra ko'proq karbonat angidridni yutadi.

Kanop tolasi asosida tayyorlangan kiyim va matolar inson sog'lig'i uchun foydali hisoblanadi. Antibakterial: mikroblar va mog'orlarning ko'payishini cheklaydi. Allergiya chaqirmaydi: teriga zarar yetkazmaydi. Havo o'tkazuvchan: terining nafas olishini ta'minlaydi. Namlikni tez singdiradi: sport kiyimlari uchun qulay. Chidamlilik: ko'p yuvilganda ham shaklini saqlaydi.

Tuproq va iqlim mosligi - O'zbekistonning ko'plab hududlarida sho'rlanish muammosi mavjud (FAO, 2020). Kanop sho'rga nisbatan chidamli va fitoremediatsiya xususiyatiga ega: og'ir metall va tuzlarni o'zlashtirib, tuproq sifatini tiklaydi. 3–4 oyda hosil beradi, yiliga ikki marta ekish mumkin.

Suv resurslari bo'yicha afzallik - paxtaga qaraganda 2–3 baravar kam suv talab qiladi. Sug'orish imkoniyati cheklangan foydalanilmayotgan yerlarda samarali bo'ladi.

Kanop tuproqni tozalab, unumdorligini tiklab beradi. Shundan so'ng quyidagi ekinlarni ekish samarali:

Tolali ekinlar: Paxta– tuproq sifatini tiklaganidan keyin yuqori hosil beradi. Zig'ir – tola va texnik moy uchun.

Kanop tuproqni tozalab, unumdorligini tiklab beradi.

Kanopdan keyin tuproq tiklanib, paxta, zig'ir, so'ya, bug'doy va boshqa ekinlar muvaffaqiyatli o'stirilishi mumkin. Bu esa O'zbekiston uchun ekologik muammolarni yumshatish bilan birga, yangi iqtisodiy imkoniyatlar ham yaratadi.

O'zbekiston paxtachilikda dunyoda yetakchi bo'lsa-da, suv resurslari tanqisligi va ekologik muammolar yangi muqobil tolalarni izlashni talab qilmoqda. Kanop tolasi suvni tejash, paxtaga qaramlikni kamaytirish, yangi eksport





yoʻnalishlarini ochish va barqaror rivojlanishga xizmat qilishi mumkin. Oʻzbekistonning Fargʻona vodiysi, Toshkent viloyati va Surxondaryo kabi hududlari kanop yetishtirish uchun iqlimiy jihatdan mos keladi.

### Qiyosiy tahlil

1-jadval

Ekin turi	Kanopdan keyin mosligi	Ekologik foydasi	Iqtisodiy foydasi
Paxta	Yuqori	Tiklangan tuproqda hosil yaxshi	Tola, eksport
Zigʻir	Yuqori	Azot talab qilmaydi	Tola va moy

Kanop tolasi anʼanaviy paxta va ipak tolalariga nisbatan ekologik, iqtisodiy va gigiyenik jihatdan samarali muqobil sifatida koʻrib chiqilyapti. Kanop tolasi yuqori mexanik chidamliligi, suv resurslaridan tejamkor foydalanish imkoniyati va pestitsidsiz oʻsish xususiyati bilan ajralib turadi, bu esa uni barqaror va ekologik toza tola manbai sifatida “kelajak tolasiga” aylanmoqda.

**Xulosa.** Kanop tolasi oʻzining fizik, kimyoviy va ekologik xususiyatlari bilan anʼanaviy paxta va ipak tolalariga samarali muqobil boʻla oladi. U suvni tejaydi, pestitsidsiz oʻsadi, tuproqni tiklaydi va gigiyenik jihatdan foydali mahsulotlar beradi. Oʻzbekistonda kanop yetishtirish yerlarni tiklash, suv tanqisligini kamaytirish va toʻqimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. FAO (Food and Agriculture Organization). (2020). Water Use in Agriculture: Global Comparison between Crops. Rome: United Nations.
2. WWF (World Wide Fund for Nature). (2019). Cotton and Water: The Real Footprint. Gland, Switzerland.
3. Atabaeva H., Umarov Z. Oʻsimlikshunoslik. Toshkent 2004 y.
4. Oripov R.O., Xalilov N. X. Oʻsimlikshunoslik kanopni yetishtirish texnologiyasi
5. Oʻzbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xoʻjalik ekinlari davlat reyestri 2024 yil

